O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Globallashuv jarayonida
innovatsion ta’lim va milliy
tarbiya: integratsiyaga xos
muammolar, bahslar va yechimlar

“Globallashuv jarayonida innovatsion ta’lim va milliy tarbiya: integratsiyaga xos muammolar, bahslar va yechimlar”

mavzusidagi

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

TO‘PLAMI

Сборник материалов международной
научно-практической конференции на тему:

«ИННОВАЦИОННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И НАЦИОНАЛЬНОЕ ВОСПИТАНИЕ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ДИСКУССИИ И РЕШЕНИЯ ИНТЕГРАЦИОННЫХ ПРОБЛЕМ»

“INNOVATIVE AND NATIONAL EDUCATION IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION: PROBLEMS, DISPUTES AND SOLUTIONS RELATED TO INTEGRATION”
international scientific-practical conference on a collection of materials

Termiz - 2023

10.
5. Панина Г.В. К вопросу о компетенциях и статусе бакалавра. // Высшее образование в России, -2009. -№6. -С. 40-46.
6. Смирнова О.А. Педагогическая модель формирования индивидуальных качеств личности студентов средствами физической культуры. Вестник Калининград. гос. ун-та. Социально-педагогические проблемы образования. - 2004. - N 2. - С. 102-107.

O‘QUVCHILARIDA MATNNI O‘QISH VA TUSHUNISH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY YO‘ NALISHLARI

Aslanova Nozima Hakimovna - Buxoro viloyat xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi” katta o ‘qituvchisi, p.f.f.d.(PhD)

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ У УЧАЩИХСЯ КОМПЕТЕНЦИЙ ЧТЕНИЯ И ПОНИМАНИЯ ТЕКСТА ПОСЛЕДСТВИЯ

Асланову Нозима Хакимовна - старший преподаватель, п.п.ф.д. (PhD) кафедры “Методика дошкольного, начального и специального образования” Бухарского областного территориального центра переподготовки и повышения квалификатsiи работников народного образования

MODERN METHODS OF FORMING STUDENTS' READING AND TEXT COMPREHENSION COMPETENCIES THE CONSEQUENCES

Aslanova Nozima Khakimovna - Senior lecturer, p.f.f.d.(PhD)

of the Department “Methods of preschool, primary and Special education” of the Bukhara Regional Territorial Center for Retraining and Advanced Training of Public Education Workers

Mamlakatimizda jismonan va ma’nan sog‘lom, rivojlangan mamlakatlar yoshlaridan qolishmaydigan, intellektual salohiyatli yosh avlodni tarbiyalash, ularni har tomonlama mukammal qilib voyaga yetkazish bugungi kunda shunchalik dolzarblik kasb etmoqdaki, u ham milliy, ham umuminsoniy va global xarakterdagi mazmunga ega. Uning ro‘yobga chiqishi esa insoniyatni ma’naviy va ma’rifiy yetuklik, yuksak barkamollik va ezgu maqsadlarga erishish sari yetaklaydi.

Yangi O‘zbekistonda yashaydigan yoshlar ta’lim va tarbiya olar ekan, ularning aqliy rivojlanishini, tafakkurini yangilash, o‘quv jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni kiritish orqali ularda erkin hamda mustaqil fikrlash, ijodkorlikni rivojlantirish o‘ta muhim vazifa sanaladi. Chunki hozirgi davrda zamonaviy texnika va

texnologiyalarning hayotimizga kirib kelishi inson faoliyatida, ijtimoiy ongida katta o‘zgarishlar bo‘lishini taqozo etmoqda. Zero, olam, insonning hayotda tutgan o‘rni to‘g‘risidagi tasavvurlar kundan kun o‘zgarmoqdaki, bunda tafakkur va olamni tushunishning yangi usullari shakllanmoqda, ma’naviy-amaliy o‘zlashtirishning yangi vositalari va usullariga o‘tish yuz bermoqda.

Buyuk faylasuf Konfutsiy esa o‘z qarashlarida o‘quvchi shaxsiga ta’lim va tarbiya berishda ehtiyot bo‘lish, buning uchun o‘qituvchining o‘zi ham o‘ta yuksak tayyorgarlikka ega bo‘lishini nazarda tutgan holda “O‘zini kamol toptira olmagan inson o‘zgalar kamolotini ta’minlay olmaydi”, degan fikrlarni bayon etgan.

Zamonaviy jamiyatda insonning o‘ziga xosligi, individualligi tobora ko‘proq ahamiyat kasb etib, bu holat ta’lim tizimi oldida o‘quvchi shaxsini uning o‘z tabiiy imkoniyatlari asosida, tarixiy-madaniy qadriyatlar, xalq an’analari, ilm-fan, texnikaning zamonaviy yutuqlaridan foydalangan holda rivojlantirish vazifasini qo‘ydi. Mamlakatimiz ta’lim tizimining bugungi vazifasi o‘quvchilarni kun sayin oshib borayotgan axborot oqimidan oqilona foydalanishga o‘rgatish, uzluksiz samarali ta’lim olish uchun ma’qul muhit, sharoit yaratishdan iborat.

Shuningdek, hozirgi davr jamiyatning har bir a’zosidan umuminsoniy qadriyatlarga amal qilish, ijtimoiy foydali mehnat bilan shug‘ullanish, samarali muloqot qilish, axborotni to‘g‘ri qabul qilish va uni muvofiq talqin qilish, o‘z shaxsini takomillashtirib borish, uzluksiz o‘rganish kabi layoqat(kompetensiya)larga ega bo‘lish talab qilinadi. Chunki so‘nggi davrda “uzluksiz o‘rganish”, “umr bo‘yi ta’lim”, “hayot davomida o‘qish” (long life learning) tushunchalari dolzarblik kasb etib, doimiy rivojlanish, o‘z shaxsini takomillashtirish jarayoni ko‘pchilik tadqiqotchilarning diqqat markazini egallamoqda. Zamonaviy ta’lim jarayonini esa, faqatgina o‘z ustida doimiy ishlab, innovatsion faoliyat asosida izlanadigan o‘qituvchilargina qura oladi.

Bugungi kunda mustaqillik tufayli amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari o‘z ishiga ijodiy yondashuvchi, fan, texnika, san’at, ishlab chiqarish va zamonaviy xizmat ko‘rsatish sohalarining o‘sishiga o‘z hissasini qo‘shadigan yuksak salohiyatga ega bo‘lgan mutaxassislar tayyorlashga bog‘liq. Jamiyat taraqqiyotining talab va ehtiyojlari bilan bog‘liq holda har bir o‘quvchini ijodkorlik ruhida tarbiyalash muhim va zarur hisoblanadi.[3]

Bu borada, hayotda uchraydigan har qanday vaziyatda shaxsiy o‘sishga olib keladigan holatni tanlash, o‘quvchilarga xos bo‘lgan kreativ fikrlash, ijodkorlik, ijobiy xulq-atvor, ta’lim olishga motivatsiya va intilishni shakllantirish masalalari o‘ta muhim vazifa bo‘lib hisoblanadi.

Barkamol avlodni tarbiyalash va ularni davr talabiga mos qilib shakllantirish azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi bo‘lib kelgan. Buyuk donishmand Abu Ali Ibn Sino o‘z pedagogik qarashlarida “Har bir kishini uning borlig‘i va qobiliyatiga ko‘ra o‘qitish kerak. Aks holda ta’lim-tarbiya ko‘zlangan natijani bermaydi”, degan g‘oyani ilgari suradi. U o‘z pedagogik faoliyatida yosh avlodni go‘zal axloqli qilib tarbiyalashning shart va usullarini ishlab chiqdi, shu bilan ilg‘or pedagogik fikr va qarashlar rivojiga salmoqli hissa qo‘shdi. [1]

Alisher Navoiy, Husain Voiz Koshifiy va boshqa yirik mutafakkirlar ta’lim-tarbiya haqidagi masalalarni hal qilishda asosiy e’tiborni (o‘quvchi) shogirdning bajarishi talab qilinadigan shartlarga qaratganlar. [2]

Darhaqiqat, o‘qituvchining eng muhim sifati – har doim biror yangilikni o‘ylab topishga intilish, o‘quvchilarni ham shunday faoliyatga yo‘naltirish hisoblanadi. Shaxsda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish o‘ziga xos murakkab jarayon sanaladi. Shu sababli mazkur jarayonni samarali tashkil etish uni metodik jihatdan to‘g‘ri, oqilona tashkil etishni taqozo qiladi. Aynan o‘z-o‘zini rivojlantiradigan, doimiy ravishda bilim va malakasini oshira oladigan o‘qituvchigina zamonaviy maktab ta’limi oldiga qo‘ygan vazifalarni to‘kis bajara oladi. Bunday o‘qituvchi esa o‘quvchi shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvni qo‘llab-quvvatlaydi. [4]

Ma’lumki, atrof-muhitga jiddiy munosabatlar poydevori boshlang‘ich sinflarda o‘rnatiladi. Shuning uchun ta’limning natijasi maktabning boshlang‘ich bosqichiga bog‘liq. Bu boshlang‘ich ta’limning barcha tarkibiy qismlarini o‘zgartirish va yangilashga asos yaratadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini inobatga oladigan va darsning zamonaviy talablariga mos keladigan maqsadni aniqlash bunday yangilanishning asosiy masalasi bo‘lib hisoblanadi.

L.S.Vigotskiyning pedagogik qarashlarida «O‘qish-o‘qitish, rivojlanishni olg‘a olib borishi kerak» va shu tarzda o‘rganish uchun motivatsiyani rivojlantirish muhimligi, o‘rganish motivatsiyasisiz muvaffaqiyatli o‘quv faoliyati mumkin emasligi ta’kidlanadi.

O‘quvchilarda samarali tarzda fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari R.Safarova, B.Adizov, E.G‘oziev, M.Mahmudov, A.Hamroevlarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Professor K.Qosimova va S.Matchonovlarning o‘qish metodikasiga doir ishlarida o‘quvchi ta’limning faol ishtirokchisi sifatida tilga olinishi bejiz emas. Ularning fikricha, boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida o‘quvchilarni malakali kitobxon sifatida tarbiyalashda asar tahlili va o‘quvchining shaxsiy ijodkorlik qobiliyati alohida ahamiyat kasb etadi. [3]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-sonli qaroriga binoan, ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada takomillashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi. Dasturda O‘zbek tili grammatikasini o‘qitishni isloh qilish hamda milliy ruhiyatga mos bo‘lgan ona tilini o‘qitishning yangi metodikasini ishlab chiqish vazifasi belgilab berildi. Shuningdek, boshlang‘ich ta’limda ona tili fanidan grammatik tushunchalarni soddalashtirish va takomillashtirish, ona tili fanidan imlo qoidalarini qayta ko‘rib chiqish, boshlang‘ich sinflarda yozish va o‘qish ko‘nikmalarini uyg‘unlikda shakllantirish maqsadida ona tili va o‘qish fanlarini yagona darslik asosida o‘qitib borish vazifalari yuzasidan 1, 2, va 3-sinf o‘quvchilari uchun “Ona tili va o‘qish savodxonligi” nomli yangi avlod darsliklari nashrga tayyorlandi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda ijobiy motivatsiya bo‘lgan ijodkorlikka tayanish xususiyatini mustahkamlash lozim. Chunki boshlang‘ich sinflardagi ona tili va o‘qish darslari – bu doimiy ijodkorlik darslari hisoblanadi. Bu esa o‘quvchilarni go‘zallikni ko‘ra olishga o‘rgatish, ularda estetik his-tuyg‘ularni paydo qilish, ma’naviy olamini boyitishga asoslanishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO ‘YXATI

1. Mehriddinov Z.Isamuhammedov O." Boshlang'ich ta'lim saboqlari" Toshkent 2014

2. Samiyeva S. ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ТВОРЧЕСКОГО МАСТЕРСТВА ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ВЫСШЕЙ ШКОЛЫ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАТSIЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 31. – №. 31.
3. Гревцева Г. Я. и др. Общая педагогика. – 2020.
4. Tolipova J.O. Pedagogik kvalimetriya. T.: 2017.

ТАЪЛИМДА КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ЁНДОШУВДА ЎҚИТУВЧИ ФАОЛИЯТИ

Артиқова К. К. Артиқов Ў.К ТерДП ўқитувчиси artiqovakaromat2310@gmail.com

Аннотатция: Таълимда компетенция, педагогик жараёнда дўстона, самимий муҳит, ҳамкорлик, ҳамижодкорлик ва ғамхўрлик вазиятда иш фаолиятини олиб бориш; ўқувчи, талаба шахсини хурмат қилиш ва эъзозлаш йўлларни эгаллаши, ўқитиш жараёнида ижодий ва қулай ижтимоий – психологик муҳитни яратиш кўникма ва малакаларини эгаллаган бўлиши; ўзининг педагогик ва ўқувчиларнинг билиш фаолиятидаги камчиликларга барҳам беришнинг самарали усулларини эгаллаган бўлиши керак.

Таянч сўзлар: Инновация, компетенция, компетенциявий ёндошув, дифференциаллаш, ўқув жараёни, Инновацион фаолият, гуманистик педагогика, ўқув-билув фаолияти.

Республикамизда олиб борилаётган таълим-тарбия ислоҳотлари, мутахассис кадрлар салоҳиётини оширишга қаратилган бўлиб, олий ўқув юртларида педагогларнинг методик маҳоратини ошириш муҳим аҳамият касб этади.

Ўқитувчиларимиз бу вазиятдан чиқишда уларни ўз фаолиятига танқидий ёндашиб, психологик жиҳатдан қайта кўриб чиқиб, уларни янги шароитда болаларга самимий муносабатда бўлиш, уларни ривожлантиришда шахсий ёндашув, ҳамкорлик, ҳамижодкорлик, индивидуаллашиш асосида, уларни таълим - тарбия жараёнига мотиватsiя ҳосил қилиш орқали таълим жараёнида фаол иштирокини таъминлашга барча кучларини ва эътиборларини қаратишни талаб этади.

Агар ўқитувчи ўзининг фаолиятни кузатиб борса, таҳлил қилса, ўзига баҳо бера олса, ўз фаолиятига тузатишлар, янгиликлар кирита олиш имкониятига эга бўлади.

Шу сабабли ҳам республикамизда интерфаол методларни ўқув жараёнига қўллаш кенг жорий этилмоғи керак. Бу ўз навбатида ўқув жараёнини инсонпарварлаштириш, демократиялаштириш, либерилизатсиялашни ташкил этишни тақозо этмоқда. Қисқа қилиб айтганда, ўқув жараёни марказида ўқувчи шахси, унинг эхтиёжи бўлмоғи лозим. Ўқув жараёни унинг ҳохиш, истагига қаратилган, йўналтирилган бўлмоғи талаб этилади. Шахсга қаратилган таълим ўқувчини ўқув – билув фаолиятини ташкил этишнинг ҳаракатлантирувчи,

219	***Boshlang'ich ta'limda aniq va tabiiy fanlarni o'qitishning istiqbolli yo'nalishlari*** *Jabborova Onaxon Mannapovna, Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD*	682
220	***Создание центров открытого образования (на примере работы центра ФГБОУ ВО «ВГСПУ» в Замбии, Мозамбике и Анголе)*** *Ванюшина Наталья Анатольевна, кандидат филологических наук, доцент кафедры русского языка как иностранного ФГБОУ ВО «Волгоградский государственный социально-педагогический университет»*	684
221	***Разработка программ по физическому воспитанию в условиях кредитно-модульной системы обучения*** *Бабичева Ирина Вячеславовна, кандидат педагогических наук, доцент кафедры гуманитарных наук Нурафшанского Филиала ТУИТ им.Мухаммад ал-Хоразмий*	687
222	***O'quvchilarida matnni o'qish va tushunish kompetensiyalarini shakllantirishning zamonaviy yo' nalishlari*** *Aslanova Nozima Hakimovna, Buxoro viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi "Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasi" katta o 'qituvchisi, p.f.f.d.(PhD)*	691
223	***Таълимда компетенциявий ёндошувда ўқитувчи фаолияти.*** *Артиқова К. К., Артиқов Ў.К ТерДП ўқитувчиси*	694
224	***Тасвирий санъат намуналарини умумталим мактаб ўқувчиларига тушинишга ўргатиш усуллари*** *Абатов Жалғасбай Орынбаевич, Қорақалпоқ давлат университети Санъатшунослик кафедраси катта ўқитувчиси*	697
225	***Uzluksiz ta'lim tizimida milliy tarbiyaning o'rni*** *Salomov G'ulom Yuldoshevich, Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*	700
226	***Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi asosida talaba yoshlarni ma'naviyatini shakllantirishning pedagogik- psixologik texnologiyasi.*** *Toshpo'latova Mavjuda Mamatqulovna, Psixologiya kafedrasi Pedagogika va psixologiya mutaxasisligi magistranti*	703
227	***Yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda milliy tarbiyaning ahamiyati***	706